



«OLMALIQ KMK»

AKSIYADORLIK JAMIYATI

PRESS RELIZ

2025-yil 24-aprel

Mavzu: Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda OKMK Axborot xizmatlari hamkorligida seminar-trening va press tur

O‘tkazilish joyi: Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, A.Temur ko‘chasi 42

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati – mis-molibden, polimetall va oltin tarkibli ma‘danlarni qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha O‘zbekistonda va Markaziy Osiyoda yetakchi sanalib, mis mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyodagi 30 ta yirik korxona safiga kiradi.

OKMK tarkibiga 6 ta konchilik korxonasi, 5 ta boyitish fabrikasi, Mis eritish va Rux zavodlari, Nodir metallar va qattiq qotishmalari ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi, markaziy ta‘mirlash-mexnika zavodi, Ohak zavodi, Sanoat temiryo‘l transport boshqarmasi, Avtomobil va texnologik transport boshqarmalari, Iste‘mol mollari ishlab chiqarish boshqarmasi, shuningdek, 20 dan ortiq yordamchi sexlar va laboratoriyalar kiradi.

Kombinatda 35 mingdan ziyod ishchi-xodimlar ishlaydi.

Yiliga 148 ming tonnadan ortiq mis katodi, 90 ming tonna rux metali, shuningdek, oltin va kumush qimmatbaho metallari, molibden, volfram, reniy, selen, tellur va kadmiy kabi noyob metallar ishlab chiqariladi.

Kombinatning ma‘dan zaxiralari “Qalmoqqir”, “Sariq-Cho‘qqi”, “Yoshlik-1” ochiq konlari va 4 ta yerosti konlarida joylashgan. Ushbu mineral xomashyo bazasini kengaytirish maqsadida zahiralar JORC kodeksi standartlariga muvofiq qayta baholandi hamda konlarning matematik-geologik modeli yaratildi.

“Yoshlik-1” koni dunyoda ma’dan tarkibida oltin hajmi bo’yicha yirik kon, deya tan olindi. Ma’dan tarkibida oltin hajmi bo’yicha kombinat zahirolari 1-o’rinda, mis konlaridagi ma’dan o’rtacha oltin tarkibi bo’yicha 2-o’rin, ma’dan hajmi bo’yicha 3-o’rin, tarkibidagi mis hajmi bo’yicha 6-o’rinni egallaydi.

Hozirgi paytda 2030 yilgacha kombinatni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, amalga oshirilmoqda. Uning doirasida “Yoshlik-1” konini” o’zlashtirish va 3-Mis boyitish fabrikasini qurish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, yangi metallurgiya majmuasini loyihalashtirish va qurish ishlari boshlanmoqda.

Mazkur loyiha O‘zbekiston tarixidagi eng yirik investitsiya loyihalaridan biridir. Uning amalga oshirilishi natijasida kombinatning ishlab chiqarish quvvati bir necha barobarga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

2024 yilning 15 oktyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrifi davomida ushbu loyihaning 2-bosqichi doirasida 4-mis boyitish fabrikasi qurilishiga start berildi. Bu loyiha orqali yiliga 146 ming tonna katodli mis va boshqa qimmatbaho metallarni olish quvvatlari yaratiladi. Fabrika va uning infratuzilmalarida 3 mingdan ortiq kishi ishlaydi.

Yangi fabrikaning ishlab chiqarish jarayonida yuqori texnologik, ekologik xavfsiz va tejamkor texnologiyalar qo‘llaniladi.

2025 yil 25 fevral kuni Jizzax viloyati, Forish tumanidagi OKMKda «Yoshlik-I» konini o‘zlashtirish investitsiyaviy loyihasi doirasida Yangi ohak zavodi qurilishiga start berildi.

2025 yil fevral oyida Sustainable Fitch reyting agentiligi tomonidan OKMKga ESG reytingi berildi.

Mazkur loyihalar O‘zbekiston tarixidagi eng yirik investitsiya loyihalari hisoblanadi. Ularning amalga oshirilishi natijasida kombinatning ishlab chiqarish quvvati bir necha barobarga oshiriladi.

OKMK Axborot xizmati